XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2021 - yil 30 - dekabr VI-46-115-7-94-K/21 Jomboy tumani hokimligi

Samarqand viloyati Jomboy tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, “Budjet kodeksi”ning 99-moddasi, 2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda Samarqand viloyati Xalq deputatlari Kengashining “Samarqand viloyati uchun 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2022-yil uchun Jomboy tumanining mahalliy budjetini qabul qilish bo‘yicha hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining VI-chaqiriq XLVI-sessiyasi

QAROR QILADI:

1.Samarqand viloyati Xalq deputatlari Kengashining “Samarqand viloyati uchun 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan Jomboy tumani mahalliy budjetining 2022-yil uchun daromadlari 99709400,0 ming.so‘m, xarajatlari 151375835,0 ming.so‘m prognoz qilinganligi, Respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 51666435,0 ming so‘m hamda tuman budjetining aylanma kassa mablag‘i 1160000,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashi qaroriga asosan 2022-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari tuman budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

-jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

-jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

-jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

-suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno;

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

-aylanmadan soliq;

-yig‘imlar;

-qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa to‘lovlar viloyatning viloyat budjeti hamda tuman mahalliy budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

-jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 40 foiz miqdorda tuman budjetiga;

-foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatiga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 15 foiz miqdorda tuman budjetiga;

-yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i 10 foiz miqdorda tuman budjetiga;

-yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i 10 foiz miqdorda tuman

budjetiga;

-mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar tegishli ravishda 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjetidan 2022-yilgi budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar hamda jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i bazaviy stavkasiga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 3-4-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2022-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1428074,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

7. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Majidov), tuman moliya bo‘limi (S.Salomov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (B.Baratov) tuman hokimligi, mas’ul bo‘limlar va tashkilotlar bilan birgalikda:

-tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

-mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

-budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

-budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

-tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

-budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

8. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Majidov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (J.Jumanov), tuman hokimligi:

-budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

-soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

-tegishli ravishda budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

9. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Boxodirov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Majidov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **Jumanov J. A.**

Халқ депутатлари Жомбой туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-46-115-7-94-K/21-сон қарорига
1-илова

Jomboy tuman mahalliy budjetlarining 2022-yilgi asosiy daromad ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

	Daromad turi	**Jomboy tumani**
	JAMI DAROMADLAR	**99709400**
I	**Rag‘batlantiruvchi daromad**	**24364400**
1	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i**	51782000
	ajratma meyori	**40 %**
	Tuman (shahar) mahalliy budjetiga	20712800
2	**Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i**	24344000
	ajratma meyori	**15 %**
	Tuman (shahar) mahalliy budjetiga	3651600
II	**Tuman va shaharlar budjetiga to‘liq o‘tkaziladi**	**20686000**
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6050000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7165000
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1301000
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2920000
7	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	3250000
III	**Viloyat va tuman (shahar)lar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar**	**25984000**
8	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	9307000
	ajratma meyori	**10 %**
	Tuman (shahar) mahalliy budjetiga	930700
9	**Yuridik shaxslar yer solig‘i**	11959000
	ajratma meyori	**10 %**
	Tuman (shahar) mahalliy budjetiga	1195900
10	**Yakuniy iste’molchilarga benzin dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i**	13222000
	ajratma meyori	**100 %**
	Tuman (shahar) mahalliy budjetiga	13222000

11	**Korxonalar aylanmasidan soliq**	10040000
	ajratma meyori	**100 %**
	Tuman (shahar) mahalliy budjetiga	10040000
12	**Yig‘imlar**	540000
	ajratma meyori	**100 %**
	Tuman (shahar) mahalliy budjetiga	540000
13	**Davlat foydasiga musodara qilingan mol-mulkni sotishdan tushgan tushum**	216000
14	**Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari**	55400
	ajratma meyori	**100**
	Tuman (shahar) mahalliy budjetiga	55400
IV	**Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha)**	**28675000**
	Aholi soni (ming kishi)	178
19	Alkogol mahsulotlari shu jumladan pivo	10853000
20	Mobil aloqa xizmati	6183000
21	Sigaret uchun aksiz solig‘i	11639000
	Ma’lumot uchun: 2021 yil parametr	66607626
V	**JAMI XARAJATLAR**	**151375835**
VI	**TRANSFERTLAR**	**51666435**

Халқ депутатлари Жомбой туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-46-115-7-94-K/21-сон қарорига
2-илова

Tuman mahalliy budjetidan 2022-yilgi budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

(ming so‘m)

	Ko‘rsatkichlar nomi	**Jomboy tumani**
	Xarajatlar - jami	**151375835**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**118830200**
	shu jumladan:	
1.1	**Maorif**	**22419055**
	- maktabgacha ta’lim	10134718
	- umumiy ta’lim	12284337
1.2	Sog‘liqni saqlash jami	54499297
	sog‘liqni saqlash	54417297
	tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	82000
1.3	**Madaniyat va sport ommaviy axborot vositalari**	**3678336**
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1129154
	- sport	2549182
1.4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	38233512
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**12135566**
	shu jumladan:	
2.1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	1326001
2.2	Obodonlashtirish	7563133
2.3	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	885239
2.4	Veterinariya qo‘mitasi	1108293
2.5	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1252900
3.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**8094314**
	shu jumladan:	
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	8094314
4.	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**3747311**

5.	**Zahira jamg‘armasi**	**1428074**
6.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**7140370**
I	**ZAXIRA**	**1428074**
II	**OPEN BUDJET**	**7140370**

Халқ депутатлари Жомбой туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-46-115-7-94-K/21-сон қарорига
3-илова

2022-yil uchun mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar uchun yer solig‘i bazaviy stavkasiga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

(dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlardan tashqari)

				(ming so‘mda)
T/R	**MFYlar nomi**	**Jomboy tumaniga 2022-yil uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi**	**Bazaviy solik stavkaga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar**	**Yer soligi stavkasi 1 gektar uchun**
1	Polvonariq	38500.0	0.8	30800.0
2	Nogaxon	38500.0	0.8	30800.0
3	Qo‘lbosti	38500.0	0.8	30800.0
4	Sherko‘rg‘on	38500.0	0.8	30800.0
5	Sariqipchoq	38500.0	0.8	30800.0
6	Qo‘ng‘irot	38500.0	0.8	30800.0
7	To‘qqizboy	38500.0	0.8	30800.0
8	Xitoypoyon	38500.0	0.9	34650.0
9	Taldirazzoq	38500.0	0.9	34650.0
10	Quduqli	38500.0	0.9	34650.0
11	Ko‘kgumbaz	38500.0	0.9	34650.0
12	Olmazor	38500.0	1.0	38500.0
13	Nayman	38500.0	1.0	38500.0
14	G‘azira	38500.0	1.0	38500.0
15	Qo‘rg‘onsalomon	38500.0	1.0	38500.0
16	Nush	38500.0	1.1	42350.0
17	Naymantepa	38500.0	1.1	42350.0
18	Saroy	38500.0	1.1	42350.0
19	Qangli	38500.0	1.2	46200.0
20	Qoramo‘yin	38500.0	1.2	46200.0

21	Tut	38500.0	1.2	46200.0
22	Juriyat	38500.0	1.2	46200.0
23	Eski Jomboy	38500.0	1.2	46200.0
24	Beshbola	38500.0	1.2	46200.0
25	Katta qishloq	38500.0	1.3	50050.0
26	Sarichashma	38500.0	1.3	50050.0
27	Dehqonobod	38500.0	1.3	50050.0
28	Shirinkent	38500.0	1.3	50050.0
29	So‘xmon	38500.0	1.3	50050.0
30	A.Navoiy	38500.0	1.3	50050.0
31	A.Qurbonov	38500.0	1.3	50050.0
32	Shodlik	38500.0	1.3	50050.0
33	Toshkent	38500.0	1.3	50050.0
34	Guliston	38500.0	1.3	50050.0
35	Nazar	38500.0	1.3	50050.0
36	Zarafshon	38500.0	1.3	50050.0
37	Xolvoyi	38500.0	1.3	50050.0
38	Samarqand	38500.0	1.3	50050.0

Izox: Samarqand viloyati bo‘yicha yuridik shaxslar uchun **1 ga yer maydoniga** bazaviy soliq stavkasi **35 000,0 mingso‘m** belgilangan. Xalq deputatlari Samarqand viloyat kengashi qaroriga asosan Jomboy tumaniga bazaviy solik stavkasiga nisbatan **1,1 koeffitsent belgilangan.**

Халқ депутатлари Жомбой туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-46-115-7-94-K/21-сон қарорига
4-илова

2022-yil uchun mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i bazaviy stavkasiga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

(dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlardan tashqari)

				(so‘mda)
T/R	**MFY lar nomi**	**Jomboy tumaniga 2022-yil uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi**	**Bazaviy solik stavkaga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar**	**Er soligi stavkasi 1 kv.m uchun**
1	Polvonariq	323.40	0.8	258.72
2	Sariqipchoq	323.40	0.8	258.72
3	Sherqo‘rg‘on	323.40	0.8	258.72
4	Qo‘lbosti	323.40	0.8	258.72
5	Qo‘ng‘irot	323.40	0.8	258.72
6	Nogaxon	323.40	0.8	258.72
7	To‘qqizboy	323.40	0.8	258.72
8	Xitoypoyon	323.40	0.8	258.72
9	G‘azira	323.40	0.9	291.06
10	Taldirazzoq	323.40	0.9	291.06
11	Ko‘kgumbaz	323.40	0.9	291.06
12	Qo‘rg‘onsalomon	323.40	0.9	291.06
13	Nayman	323.40	0.9	291.06
14	Olmazor	323.40	0.9	291.06
15	Quduqli	323.40	0.9	291.06
16	Naymantepa	323.40	0.9	291.06
17	Qoramo‘yin	323.40	0.9	291.06
18	Saroy	323.40	0.9	291.06
19	No‘sh	323.40	0.9	291.06
20	Juriyat	323.40	0.9	291.06
21	Beshbola	323.40	0.9	291.06
22	Tut	323.40	1.0	323.40
23	Qangli	323.40	1.0	323.40
24	Eski Jomboy	323.40	1.0	323.40
25	Shirinkent	323.40	1.0	323.40

26	Sarichashma	323.40	1.1	355.74
27	Dehqonobod	323.40	1.1	355.74
28	So‘xmon	323.40	1.1	355.74
29	Katta qishloq	323.40	1.2	388.08
30	Xolvoyi	323.40	1.2	388.08
31	Nazar	323.40	1.3	420.42
32	A.Qurbonov	323.40	1.3	420.42
33	A.Navoiy	323.40	1.3	420.42
34	Samarqand	323.40	1.3	420.42
35	Guliston	323.40	1.3	420.42
36	Zarafshon	323.40	1.3	420.42
37	Toshkent	323.40	1.3	420.42
38	Shodlik	323.40	1.3	420.42

Izox: Samarqand viloyati bo‘yicha jismoniy shaxslar uchun **1 kv/m yer maydoniga** bazaviy soliq stavkasi **320,20 so‘m** belgilangan. Xalq deputatlari Samarqand viloyat kengashi qaroriga asosan Jomboy tumaniga bazaviy soliq stavkasiga nisbatan **1,01 koeffitsent belgilangan.**